

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

**HOZIRGI KUNDA DUNYO DAVLATLARI NAFAQAT
O'ZBEKISTONDA KO'PLAB MUHOKAMA VA MUROSALARGA SABAB
BO'LAYOTGAN GENDER TENGLIK**

Yo'ldoshova Nafisa Izzatulla qizi

Toshkent shahar yuridik texnikumi

Davlat-huquqiy faoliyat yo'nalishi

2-kurs talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi kunda dunyo hamda O'zbekistonda ko'plab muhokama va murosalarga sabab bo'layotgan dolzarb muammolardan biri hisoblangan Gender tenglik borasida olib borilayotgan islohotlar, muammolar va yechimlar hamda gender tenglikka erishish uchun amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar haqida keltirib o'tiladi.

Kalit so'zlar: Gender tengligi, muammo, yechim, islohotlar, jamiyat, davlat. **Kalit so'zlar:** Gender tengligi, muammo, yechim, islohotlar, jamiyat, davlat.

Annotation: In this article, the work on gender equality, which is considered one of the current problems that is causing many discussions and compromises in the world and Uzbekistan, is discussed.

Key words: Gender equality, problem, solution, reforms, society, state. **Key words:** Gender equality, problem, solution, reforms, society, state.

Аннотация: В данной статье ведется работа по обеспечению гендерного равенства, которая считается одной из актуальных проблем, вызывающей множество дискуссий и компромиссов в мире и в Узбекистане.

Ключевые слова: Гендерное равенство, проблема, решение, реформы, общество, государство. **Ключевые слова:** Гендерное равенство, проблема, решение, реформы, общество, государство.

KIRISH

Hozirgi kunda dunyo hamda O'zbekistonda gender tenglik borasida paydo bo'layotgan muammolar har qanday odamni e'tiborsiz qoldirmaydi. Ho'sh bu muammolar qanday paydo bo'lmoqda? Aslida tushunarsiz so'zlar yo'q, yetib bormaydigan miyalar bor holos. Bu ibora bejiz aytilmagan ko'rindi. Chunki aynan shu iborani gender tenglik borasidagi muammolarni paydo bo'lishiga sabab bo'layotgan omil sifatida qarasak mubolag'a bo'lmaydi. Birinchi o'rinda Gender tenglik tushunchasi nima ekanligini anglab yetishimiz zarur. Ho'sh Gender tenglik nima? Gender – xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura va madaniyat, ta'lif hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihat.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Mamlakatimizda so'ngi besh yil davomida gender tenglik masalasiga ulkan ahamiyat bermoqda. Gender tenglik Birlashgan Millatlar Tashkiloti tomonidan alohida e'tibor

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

qaratilayotgan va qo'llab-quvvatlash zarurligi e'tirof etilayotgan muxim masalalardan biri hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev davlat rahbari sifatida faoliyatining ilk kunlaridanoq asosiy e'tiborni ayollar va oila muammolariga qaratib kelmoqda. Natijada o'tgan davrda gender tenglikni ta'minlash va ayollarning ijtimoiy turmush sharoitlarini yaxshilashga doir bir qator normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Vazirlar Mahkamasining 2018 yil 12 aprelda qabul qilingan “Og'ir ijtimoiy vaziyatga tushib qolgan xotin-qizlarga, nogironligi bo'lgan, kam ta'minlangan, farzandlarini to'liqsiz oilada tarbiyalayotgan va uy-joy sharoitini yaxshilashga muhtoj onalarga arzon uy-joylar berish tartibi to'g'risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi qarori shular jumlasidandir. Ushbu qaror mohiyatan inson huquqlarini himoya qilish, ayollarni ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan qo'llab-quvvatlash, umuman, jamiyatimizda gender tenglikni ta'minlashga qaratilgan, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlarini ta'minlashning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

demokratizm;

xotin-qizlar va erkaklarning teng huquqliligi;

jins bo'yicha kansitishga yo'l qo'yilmasligi;

ochiqlik va shaffoflik.

Mehnat va mashg'ulotlar sohasida kansitish taqiqlanadi. Jinsi, yoshi, irqi, millati, tili, ijtimoiy kelib chiqishi, qarindoshlarida sudlanganlikning mavjudligi, mulkiy holati va mansab mavqeyi, yashash joyi, dinga bo'lgan munosabati, e'tiqodi, jamoat birlashmalariga mansubligi, shuningdek xodimlarning ishchanlik sifatlari va mehnati natijalari bilan bog'liq bo'lmasagan boshqa jihatlariga qarab mehnat va mashg'ulotlar sohasida biror-bir to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita cheklovlar belgilash, xuddi shuningdek biror-bir to'g'ridan-to'g'ri yoki bilvosita imtiyozlar berish kansitishdir. Oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi

Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlani tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi.

2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasi (bundan buyon matnda Gender strategiyasi deb yuritiladi). 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini 2021-2022-yillarda amalga oshirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi (bundan buyon matnda Kompleks chora-tadbirlar dasturi deb yuritiladi). 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining maqsadli ko'rsatkichlari (bundan buyon matnda Maqsadli ko'rsatkichlar deb yuritiladi) 3-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Belgilansinki, Gender strategiyasini 2023 — 2030-yillarda bosqichma-

MODERN EDUCATIONAL SYSTEM AND INNOVATIVE TEACHING SOLUTIONS

bosqich amalga oshirish uchun har yilda alohida-alohida kompleks chora-tadbirlar dasturlari tasdiqlanadi.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

Kompleks chora-tadbirlar dasturida belgilangan vazifalarning o'z vaqtida va sifatli ijro etilishini ta'minlasin; har chorak yakuni bo'yicha Kompleks chora-tadbirlar dasturi doirasida amalga oshirilgan ishlar to'g'risida O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatiga axborot kiritib borsin;

XULOSA

Demak Gender tenglik borasida paydo bo'layotgan muammolarni sabablaridan biri bu Gender tenglik tushunchasini tushunmaslik. Hozirgi kunda oilalarda nafaqat jamiyatda bu tushunchani to'g'ri qabul qilmaslik ko'plab muammolarga sabab bo'lmoqda. Ya'ni insonlar Gender tenglikni huquqlarda tenglik emas balki bir biridan ustunlik deya tushunishi oqibatida muammolar paydo bo'lmoqda. Shu muammolarni bartaraf etishda va oldini olishda hukumat tomonidan chora-tadbirlar ishlab chiqarilmoqda va ishonamanki bu tezda o'z samarasini ko'rsatadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'RQ-562-соҳ 02.09.2019. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlari to'g'risida <https://lex.uz/docs/-4494849>
- 2.O'zbekiston Respublikasining Mehnat kodeksi
- 3.O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi
- 4.Erkaklar va ayollar teng huquqliligi kafolatlari <https://advice.uz/oz/document/2291>
- 5.O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi
- 6.SQ-297-IV-соҳ 28.05.2021. 2030-yilga qadar O'zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasini tasdiqlash haqida
- 7.O'zbekistonda gender siyosatiga e'tibor yanada kuchaymoqda <http://nhrc.uz/oz/news/ozbekistonda-gender-siyosatiga-etibor-yanada-kuchaymoqda>